

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster univesiteti talabalari tomonidan **“Milliy qadriyatlar va ularning millat ma’naviyatidagi o‘rni”** shiori ostida **“Adiblar xiyoboni”** dagi atoqli adib Aleksandr Faynbergning haykali poyida tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifiy hamda sport tadbirlarini
BAYONI

2025-yil 22 oktyabr

TXVU

2025-yil 22 oktyabr kuni Toshkent shahridagi “Adiblar xiyoboni”da Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti talabalari ishtirokida atoqli o‘zbek adibi Aleksandr Faynberg haykali poyida ma’naviy-ma’rifiy va sport tadbirlari tashkil etildi.



Tadbirning asosiy maqsadi yoshlarni adabiyot va san’at orqali milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishdan iborat bo‘ldi.



Tadbirning asosiy maqsadi yoshlarni adabiyot va san’at orqali milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishdan iborat bo‘ldi.

Ma'naviy qismda talabalarga Aleksandr Faynbergning hayoti, ijodi va o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot berildi. Talabalar tomonidan shoirning asarlaridan parchalar o'qildi, adabiyotning jamiyat ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni yuzasidan suhbat o'tkazildi.



Shundan so'ng tadbir sport musobaqalari bilan davom ettirildi. Talabalar o'rtasida jamoaviy o'yinlar, yugurish, arqon tortish va boshqa sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar o'tkazildi. G'olib jamoalar universitet ma'muriyati tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



Tadbir davomida talabalar faol ishtirok etib, adabiyot, ma'naviyat va sport uyg'unligi inson kamolotida muhim o'rin tutishini ta'kidladilar. "Adiblar xiyoboni"da tashkil etilgan mazkur ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari talabalar uchun ruhiy madad, jamoaviylik, sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi, shuningdek, milliy adabiyotga hurmatni kuchaytiruvchi muhim tashabbus bo'ldi.



**TXVU Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha birinchi prorektori:**

N. Kadirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova